

ALOHIDA TA'LIMGA EHTIYOJI BO'LGAN BOLALARNING TA'LIM-TARBIYA BERISH TIZIMINING MAZMUN MAXIYATI (Inklyuziv ta'lim)

Husanova Nilufar Farxod Qizi

Yangiqo'rgon tumani MMTB ga qarashli

6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining amalyotchi psixologi

Annotatsiya: Ta'lim jarayonining oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra turli yoshdagi bolalar va o'smirlarning umumiy ta'lim-tarbiyasi masalalari bo'yicha olib borilayotgan va amalga oshirilayotgan bilim berish jarayonlari bilan bir qatorda ulardagi mavjud bo'lgan nuqsonlar va anamaliyalarni bartaraf etishga oid korreksion maxsus fanlar, mashg'ulotlar o'tkazilishi ham muhim tarkibiy qismidir.

Kalit so'zlar: Jamiyat, ta'lim, tarbiya, chora tadbirlar, mutaxassisi defektologlar, (logoped, tiflopedagog, surdopedagog, oligofrenopedagog, psixolog, inklyuziv ta'lim.

Abstract: According to the goals and tasks set for the educational process, along with the current and implemented educational processes of children and adolescents of different ages, as well as their existing defects and correctional special subjects, training on the elimination of anomalies is also an important component.

Key words: Society, education, upbringing, special measures, speech therapists, typhologist, deaf pedagogue, oligophrenopedagogue, psychologist, inclusive education.

Аннотация: В соответствии с целями и задачами, поставленными перед образовательным процессом, наряду с текущими и реализуемыми образовательными процессами детей и подростков разного возраста, а также имеющимися у них дефектами и коррекционными специальными предметами, обучение по устранению аномалий также является важным компонент.

Ключевые слова: Общество, образование, воспитание, специальные меры, логопеды, типолог, глухой педагог, олигофренопедагог, психолог, инклюзивное образование.

Bugungu jamiyatimizda xar bir bola etiborda va talim jarayonlariga jalb qilingan bu esa ularni ta'lim-tarbiya jarayonlariga jalb qilishda pedagog va psixolog mutaxasislarning izlanishlari va yurtimizda yaratilib berilayotgan imkoniyatlar buning yorqin misolidi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020 yil 13 oktabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq bugungi kunda ilmiy faoliyat maskanlarida ham bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Chiqarilgan qaror loyihalari va ularni amalyotga joriy qilish jarayonlari 2020–2025 yillarda xalq ta’limi tizimi va ta’lim-tarbiya jarayonlarida inklyuziv ta’limning bugungi faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasining O‘zbekistonda olib borilayotgan inklyuziv ta’limni rivojlantirish asoslari, bundan tashqari alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiya berish tizimining mazmun maxiyati va uning amaliy faoliyatdagi jarayonlarini takomillashtirish va bu bilan ularga ko‘rsatiladigan ta’lim tizimida amal qilayotgan xizmatlarning sifatini tubdab yaxshilash yollarini takomillashtirish uchun qator vazifalar belgilanmoqda. Ular quyudagilar:

- Bugungi kunda alohida ta’lim-tarbiyaga muhtoj bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan maxsus talablarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

- Ta’lim muassasalariga zarur bo‘lgan adabiyotlar, o‘quv qurollari, turli kasblar bo‘yicha o‘qitish uchun moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish ;


- Inklyuziv ta’lim-tarbiya tizimini tashkil etish, ta’lim-tarbiya muassasalarida maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko‘tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqalar), bundan tashqari tegishli xodim, mutaxassislar bilan ta’minlash (maxsus o‘qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo‘yicha mutaxassislar);

- alohida ta’lim-tarbiyaga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni moslashuvi jarayonlari va integratsiyalashuvi uchun zarur bo‘lgan maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan ta’minlash;

yuqorida keltirib o‘tilgan tavsiyalar va muhim vazifalarni bajarish orqali biz Imkoniyati cheklangan bolalarga kasb-hunar **o‘rgatishimiz**, kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun yetarli sharoitlar yaratishimiz, bundan tashqari ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish orqali jamiyatda o‘z **o‘rnilarini** topishlari va jamiyatning to‘laqonli a‘zosi bo‘lish imoniyatiga ega bo‘lishlari uchun gumanistik yondashuvlarni amalga oshirishimiz mumkin. Bu kabi amaliy faoliyatlarga davlatimiz va maxsus soxa vakillari tomonidan ham jiddiy e’tibor berib kelinmoqda. Bundan tashqari, ushbu masala bugungi kunning eng muhim va dolzarb muammolaridan biri.

Bu soxada olib borilayotgan isloxoatlarning amaliy jarayonlarini bu soxadagi ta’lim-tarbiya mazmunining takomillashib borayotganligi va ta’lim-tarbiya samaradorligining oshib borayotganligida va albatta bu kabi vazifalarni yanada mukammalltirish maqsadida o‘quv **Dasturlari**, ta’lim standartlari va talablari qayta ko‘rib chiqib, ular asosida yangi darslik va **o‘quv** qo‘llanmalariva ularning yangi avlodlari yaratilib kelinmoqda, bu kabi isloxoatlarni amalga oshirish zamon bilan ham nafas xarakat qilish esa ta’lim jarayoniga yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va amalga oshirishni vazifalarini belgilaydi.

Keltirib oʻtilgan yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib bugungi kunda inklyuziv taʼlim jarayonlarga ham bu bilan bir qatorda esa maxsus taʼlim muassasalarining pedagogik-psixologik taʼlim-tarbiya jarayonlarini umum va maxsus korreksion taʼlim-talablari asosidagi oʻquv rejalar , korreksion dasturlar va maxsus darsliklar asosida amalga oshirish muhurligi. Dars jarayonlari esa bolalarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini eʼtiborga olgan xolda tashkil etiladi. Qayd etilgan turli nuqson turlari boʻyicha tashkil etilgan maxsus yoki umum taʼlim muassasalarida oʻz kasbini yetuk mutaxassisi defektologlar (logoped, tiflopedagog, surdopedagog, oligofrenopedagog) faoliyat koʻrsatadi.



Taʼlim jarayonining oldiga qoʻygan maqsad va vazifalariga koʻra turli yoshdagi bolalar va oʻsmirlarning umumiy taʼlim-tarbiyasi masalalari boʻyicha olib borilayotgan va amalga oshirilayotgan bilim berish jarayonlari bilan bir qatorda ulardagi mavjud boʻlgan nuqsonlar va anamaliyalarni bartaraf etishga oid korreksion maxsus fanlar, mashgʻulotlar oʻtkazilishi ham muhim tarkibiy qismidir.

Yuqorida keltirilgan fikrlarimiz va olib borilayotgan isloxlardan, inklyuziv taʼlim jarayonlariga berilayotgan etibor va imkoniyatlardan mutaxassislarimiz bolalarni rivojlantirish va bu bilan bir qatorda sogʻliklarini tiklashga jamiyatda oʻz oʻrnilarini tiklashga yordam berishlari lozim. Xulosa oʻrnida mutaxassis sifatida bolalarni rivojlantirish uchun quyudagi mashgʻulotlarni ham tavsiya etamiz.

Misol uchun :

Koʻzi ojiz bolalar uchun quyudagi mashgʻulotlarni tavsiya etamiz bu mashgʻulotlar bola rivojlanishiga yordam beradi:

- **«Predmet tassavurini va koʻruv idrokini rivojlantirish»,**

- «Mayda qo'l motorikasi va teri tuyushni rivojlantirish»,
- «mo'ljal olish va harakatlanish»,
- «Ijtimoiy-maishiy yo'naltirish»,
- «Davolash gmnastikasi»,
- «Ritmika»,
- «Logopediya» o'tkaziladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabi uchun:

- «Eshitish qobiliyatini rivojlantirish»,
- «ijtimoiy mehnat»,
- «labdan o'qitish»,
- «nutq o'stirish»,
- «davolovchi gimnastika» kabi korreksion fanlar

Bolalarni o'qitish bilan bir qatorda ularga ta'lim jarayonlarini ham olib boorish bir vaqtning o'zida davolovchi mashg'ulotlarni ham o'tkizish lozim. Sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar bolani ruhiy kamooti uchun ham zarur. Ta'lim muassasalari o'qitish va korreksiyalash uchun zarur bo'lgan maxsus yordamchi vositalar, ko'rgazma qurollari va kerakli jixozlar bilan to'liq taminlangan bo'lishi mavjud vazifalarni bajarishimiz uchun muhim. Davlatimiz rahbari takidlaganlaridek hech bir bla etibordan chetda emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Inklyuziv ta'lim» muvaqqat Nizomi. 2005 yil.
2. Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'limni tashkil yetish to'g'risida muvaqqat NIZOM. O`RXTV 234-sonli buyrug'i T.,19 sentyabr, 2005.
3. “Maktablar hamma uchun”- “Bolalarni qutqaring jamg'armasi” -2002 yil.
4. “Maktablarin olqishlab-inklyuziv maktablardagi nogiron o'quvchilar”- YuNESKO - 1999 yil.
5. Yuneskoning 2003 yil O'zbekistonda 2 – 4 oktyabr kunlaridagi «Inklyuziv ta'lim» ga oid seminarii xujjatlari.
6. Roy Mark Konki ”Inklyuziv sinflarda o'quvchilar yehtiyolarini anglash va bu yehtiyolarni qondirish” Toshkent-YuNESKO-2004yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma
7. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.
8. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o 'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.

9. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. Экономика и социум, (8 (87)), 42-45.
10. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(2), 969-972.
11. qizi Kamolova, A. O. (2023). SINFDAN TASHQARI SPORT MASHG'ULOTLARI ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY G'URUR, QADRYATLAR, UMUM INSONIY XIS TUYG'ULARNI RIVOJLANTIRISH. Results of National Scientific Research International Journal, 2(8), 60-66.
12. Xalimjanovna, A. M. (2022). MANIFESTATIONS OF STRESS IN PROFESSIONAL ACTIVITY AND WAYS TO ELIMINATE IT. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 841-844.
13. АСРАНБАЕВА, М. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ФАКТОРЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ. УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью Коллоквиум, 43-45